

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti

Matematika yo'nalishi talabasi
DO'SNAZAROV SARDOR BAXTIYOR
O'G'LINING

“Tekislikda chiziqlar orasidagi eng yaqin masofani topish”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

**fizika-matematika fanlari
nomzodi, dots. Norjigitov H.**

Guliston 2014

MUNDARIJA

	KIRISH	2
1-BOB.	FUNKSIONALLAR VA VARIATSION MASALA.....	8
1.1§	Funksionallar. Funksionallarning yaqinlik darajasi.....	8
1.2§	Eng sodda variatsion masala. Masalaning qo'yilishi.....	14
1.3§	Variatsion hisobning asosiy lemmasi. Eyler tenglamasi.....	20
2-BOB.	II BOB. TEKISLIKDA FUNKSIYALAR ORASIDAGI MASOFA.....	28
2.1§	To'g'ri chiziq va parabola orasidagi masofa.....	28
2.2§	Ikki parabola orasidagi masofa.....	30
	Xulosa.....	38
	Foydalanilgan dabiyyotlar.....	40

KIRISH

Variatsion hisob bizga asosan matematik analiz kursidan ma'lum bo'lib, bitta va bir nechta o'zgaruvchilarga bog'liq funksiyalarning ekstremum qiymatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ammo variatsion hisobda ekstremum qiymatlari o'rganiladigan funksiyalar oddiy argumentlarga emas, balki murakkab argumentlarga bog'liq deb qaraladi. To'g'rirog'i, bu yerda funksionallarning ekstremum qiymatlariga oid masalalar o'rganiladi. Bu turdagi masalalar 1696 yilda Iogann Bernulli tomonidan ta'riflangan braxistaxrona(eng qisqa vaqt) masalasi deb atalgan masala bilan boshlangan.

Bu masalani hal qilishda I. Nyuton, Y va D Bernullilar, G. Lopiatal, J. Logranj, A. Lejandr va L. Eyler salmoqli xissa qo'shganlar. Buning natijasida yangi-yangi masalalar va ularni yechish metodlari yaratilib, bu esa matematika fanining katta tatbiqiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi va muhim sohasi-**variatsion hisob** sohasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.


Bu fanning rivojlanishida L. Eylerning 1744 yilda chop etilgan "" nomli mashhur traktati alohida o'rin tutadi.

Bu yerda shuni ham eslatish zarurki, L. Eyler o'z ishlarida ekstremum masalalari yechilishining zaruriy shartlarini aniqlab berdi.

Yetarlilik shartlari bilan birinchi marta Veyershtrass, keyinchalik A. Lejandr shug'ullandi. Variatsion hisobning tobora rivojlanishiga o'zlarining yirik hissalarini qo'shib, uning muhim va zamonaviy masalalarini yechishda, ayniqsa ko'p argumentli funksionallarning ekstremumlarini tekshirishda rus olimlari (jumladan, M. V. Ostrogradskiy) o'z metodlarini yaratdilar. Funksional analiz masalalariga variatsion hisobni tatbiq etishda sovet olimlari M. A. Lavrentev, L. A. Lyusternik, I.G. Petrovskiy, N.M. Krilov va boshqalarning roli katta bo'ldi, ular ayni vaqtda variatsion hisobning ko'p sohalarida, ayniqsa maxanika masalalarini, shuningdek, ba'zi chegaraviy masalalarni yechishda tatbiq qilib, yangi-yangi metodlar yaratmoqdalar.

1. *Braxistaxrona masalasi.*

Berilgan $A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq bo'ylab moddiy nuqta o'z og'irligi ta'sirida tushadi. Jismning traektoriasi qanday bo'lganda tushish vaqti eng qisqa bo'ladi?



Nuqtalarni *1-chizma* dagidek joylashtiraylik. Bunda $A(x_0, y_0)$ nuqta koordinatalar boshida, ordinatalar o'qi esa pasrga, absissalar o'qi gorizontal yo'nalgan. Bu yerda biz eng qisqa vaqt degan bilan eng qisqa yo'l tushunchasini chalkashtirmasligimiz kerak. Bizning masalamizda izlanayotgan chiziq to'g'ri chiziq bo'la olmaydi, chunki bu holda tushayotgan moddiy nuqtaning tezligi sekin ortadi, bunga vaqt ko'p ketadi, undan tikroq bo'lgan egri chiziqning qismida esa harakat tezligi tez ortib, yo'lning ko'proq qismini kattaroq tezlik bilan o'tadi. Bunda esa vaqt tejaladi. Harakatdagi nuqta t vaqtda $P(x, y)$ holatda va $v(x, y, t)$ tezlikka ega bo'lsin. Boshlang'ich tezlik $v = 0$ desak, ogirlik kuchining bajargan ishi mgy bo'lib, quyidagi harakat tenglamasini yozsak bo'ladi:

$$\frac{mv^2}{2} = mgy$$

bunda $\frac{mv^2}{2}$ harakatlanuvchi kuchning $t = 0$ dan ixtiyoriy t vaqtgacha

bo'lgan orttirmasi. So'ngi tenglikdan

$$v = \sqrt{2gy} \quad \text{va} \quad dt = \frac{ds}{v}$$

bo'lgani uchun moddiy nuqta harakatidagi elementar vaqt

$$dt = \frac{\sqrt{1+y'^2} dx}{\sqrt{2gy}},$$

AB yoyni o'tishga ketgan vaqt esa

$$T = \int_{x_0}^{x_1} \frac{\sqrt{1+y'^2}}{\sqrt{2gy}} dx$$


bu yerda o'zgarmas ko'paytuvchilarni hisobga olmasak, *braxistaxrona masalasini yechish ushbu*

$$\int_{x_0}^{x_1} \frac{\sqrt{1+y'^2}}{\sqrt{y}} dx \quad (1)$$

Integralga minimum qiymat beruvchi $y(x)$ funksiyani izlashimiz kerak ekan.

2. Eng kichik aylanish sirti masalasi.

$A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalardan o'tuvchi egri chiziqlar ichidan absissalar o'qi atrofida aylanishi natijasida eng kichik aylanish sirti hosil qiluvchisi topilsin(2-rasm).



2 – chizma

$A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalardan o'tuvchi izlanyotgan egri chiziq tenglamasini $f(x)$ deb faraz qilaylik, u holda aylanish sirtining yuzi

$$S = 2\pi \int_{x_0}^{x_1} y \sqrt{1 + y'^2} dx$$

bo'ladi. Bu formulada ham o'zgarmas ko'paytuvchini etiborga olmasak, ushbu

$$\int_{x_0}^{x_1} y \sqrt{1 + y'^2} dx \quad (2)$$

ko'rinishdagi *integralga minimal qiymat beruvchi $y(x)$ funksiyani topish so'raladi.*

Yuqoridagi ta'riflardan ikkala masalani yechishda kelib to'xtalgan (1) va (2) integrallarga etibor bersak, bu integral belgilari ostida turgan funksiyalar y dan tashqari uning hosilasi y' ning ham funksiyasidir.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu bitiruv malakaviy ish variatsion hisob masalasida chiziqlar orasidagi eng qisqa masofani topishga bag'ishlangan. Matematika yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar, albatta bunday masalalarga duch kelishadi. Variatsion hisob va optimallashtirish fanida esa egri chiziqlar orasidagi eng qisqa masofani topish masalasi misol sifatida qaralgan. Shu sababli ushbu bitiruv malakaviy ishda bu masalani kengroq yoritishga xarakat qildik. Buning uchun avvalo, variatsion hisob tarixi, variatsion hisob masalalari, variatsion hisob masalalarini echish uchun zarur bo'lgan aksiomalar va teoremlar o'rganildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishdan foydalanib talabalar variatsion hisob fanini yanada chuqurroq o'rganib ularni qo'llay biladi. Amaliy masalalarda to'g'ri chiziq va egri chiziq orasidagi eng qisqa masofa, egri chiziq va egri chiziq orasidagi masofalarni topish masalasi juda ko'p uchraydi. Shu sababli, bitiruv malakaviy ishda qo'yilgan masala dolzarb deb xisoblaymiz.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Talabalarga variatsion hisobning qadimiy masalalarini, boshlang'ich tushunchalarni, variatsion hisobning asosiy lemmasini, masalalarni echish uchun zarur teoremlarni va egri chiziqlar orasidagi eng qisqa masofani topish masalasini o'rgatadi.

Bitiruv malakaviy ishning muammosi. Variatsion hisobning eng sodda masalasi bo'lgan egri chiziqlar orasidagi eng qisqa masofani topish masalasida Eyler tenglamasi va transversallik shartidan foydalanish natijasida tenglamalar sistemasini echish jarayonida koeffitsientlar juda ko'p noma'lumlarga bog'liq bo'lib qoladi. Bu sistemani echishda muammo tug'diradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishda braxistoxron masalasi, geodezik chiziqlar, funktsionallarning ekstremallarini topish, asosiy lemma, Eyler tenglamasi, transversallik sharti, tekislikda egri chiziqlar orasidagi eng qisqa masofa kabi masalalarni echishni o'rganadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Variatsion xisobga oid masalalarni echishga oid o'quv materiallarni o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy vazifasi. Mazkur bitiruv malakaviy ishda funktsionallar, funktsionallarning yaqinlik darajasi, eng sodda variatsion masala. Masalaning qo'yilishi, variatsion hisobning asosiy lemmasi, Eyler tenglamasi, to'g'ri chiziq va parabola orasidagi masofa, ikki parabola orasidagi masofa kabi masalalar qaraladi.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi. Bitiruv malakaviy ishda to'g'ri chiziq va parabola orasidagi masofa, ikki parabola orasidagi eng qisqa masofa topish masalasi qo'yilgan va u masala echilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va strukturasi. Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, 5 paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB.FUNKSIONALLAR VA VARIATSION MASALA

1.1-§. Funksionallar. Funksionallarning yaqinlik darajasi.

Matematik analiz kursida ko'rgan funksiyalarimiz odatda bitta yoki bir nechta funksiyalarga bog'liq bo'lar edi. Lekin ko'p masalalarda bunday funksiyalar tushunchasi yetarli bo'lmay qoladi: masalan, o'tkazgich bo'ylab elektr oqimi o'tganda o'tkazgich atrofida hosil bo'lgan elektromagnit maydonning kuchlaninshi o'tkazgich ega bo'lgan egri chiziq shakliga bog'liqdir. Hozirgi zamonda uchiralayotgan raketalar, Yer suniy yo'ldoshlari va planetalararo kosmik kemalar sirtlarining formalari ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa Yer atmosferasidan chiqishda va Yerga qaytib tushish vaqtida, Yer atmosferasiga kirganda mumkin qadar kamroq qizish, atmosfera qarshiligini mumkin qadar kamroq sezish uchun albatta bu kemalarning formalari katta ahamiyatga egadir.

Keltirilgan misollarda ko'rolayotgan kattaliklar, chunonchi kuchlanish, qarshilik va shunga o'xshash fizikaviy va maxanikaviy kattaliklar erkli argumentlarning qiymatlaridan tashqari yana funksiyalarga (egri chiziq, sirt formasi va x, k) ham bog'liq bo'ladi. Shu tushunchalar bilan biz funksional tushunchasini kiritamiz.

Bizga M to'plamda aniqlangan va uzluksiz $f(x)$ funksiyalar sinfi berilgan bo'lsin, ya'ni: $f(x) \in C(M)$.

Ta'rif. Qandaydir M uzluksiz funksiyalar $y = y(x)$ berilgan bo'lsin. Agar har bir M to'plamda yotuvchi funksiya uchun $y \in M$ birorta Y sonni mos qo'yish mumkin bo'lsa, u holda bu moslik funksional deyiladi va $J = J(y(x))$ kabi belgilanadi.

Demak, oddiy funksiyalarda biz chiziqdagi, tekislikdagi, fazodagi nuqtaga bog'lanishni ko'rsak, funksionalda chiziqqa, sirt formasiga va hokazolarga bog'lanishni ko'ramiz. Funksionalda bitta yoki bir nechta funksiyalarga funksionalning qiymati mos keltiriladi. Funksionalga ushbu

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (3)$$

integralni misol qilib keltirishimiz mumkin, chunki bu integralning qiymati $y = y(x)$ funksiyaga bog'liq.

Misol – 1.

$J(y) = \int_{x_0}^{x_1} y(x) dx$ bo'lib, $M \in [0,1]$ va $y = x$ funksiya berilgan bo'lsin. U

holda (3)

$$J(y) = \int_0^1 x dx = \frac{x^2}{2} \Big|_0^1 = \frac{1}{2} - \frac{0}{2} = \frac{1}{2}$$

bo'ladi.

Agar $M \in [0,1]$ va $y = e^x$ bo'lsa,


$$J(y) = \int_0^1 e^x dx = e^x = e - 1$$

bo'ladi.

Misol – 2.

$J(y) = y' \Big|_{x=0}$ bo'lib, $y = \sin x$ bo'lsin. U holda

$$y' = (\sin x)' \Big|_{x=0} = \cos x \Big|_{x=0} = 1.$$



Misol – 3.

$A(x_1, y_1)$ va $B(x_2, y_2)$ nuqtalar orasidagi yoy uzunligini aniqlovchi funksionalni yozing. ($x_1 \neq x_2$)

$(ds)^2 = (dx)^2 + (dy)^2 \Rightarrow ds = \sqrt{(dx)^2 + (dy)^2}$ da $dy = y'dx$ ni etiborga

$$ds = \sqrt{(dx)^2 + y'^2(dx)^2} \Rightarrow ds = \sqrt{1 + y'^2} dx \Rightarrow$$

olsak

$$\Rightarrow l_{AB} = \int_{AB} ds = \int_{x_1}^{x_2} \sqrt{1 + y'^2} dx$$

yoki

$$J = \int_{x_1}^{x_2} \sqrt{1 + y'^2} dx$$

bo'ladi.

Ta'rif: $\varphi_1(x) \in C(I)$ va $\varphi_2(x) \in C(I)$ funksiyalar orasidagi masofa deb $\max_{x \in I} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)|$ songa aytiladi.

Ta'rif: $\varphi_1(x) \in C(I)$ va $\varphi_2(x) \in C(I)$ funksiyalar uchun

$$\rho_0 = \max_{x \in I} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)|$$

$$\rho_1 = \max_{x \in I} |\varphi_1'(x) - \varphi_2'(x)|$$

$$\rho_2 = \max_{x \in I} |\varphi_1''(x) - \varphi_2''(x)|$$

.....

$$\rho_k = \max_{x \in I} |\varphi_1^{(k)}(x) - \varphi_2^{(k)}(x)|$$

sonlar oarsida eng kattasi $\varphi_1(x)$ va $\varphi_2(x)$ fuksiyalarning k -tartibli masofasi deyiladi va $\rho = \max_k \rho_k$ kabi belgilanadi.

Agar barcha k -lar uchun ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ topilsaki $\rho_k < \varepsilon$ bajarilsa $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ funksiyalar k -tartibli yaqinlikka ega deyiladi.

Misol – 4. $y_1(x) = \frac{\sin n^2 x}{n}$ va $y_2(x) = 0$ funksiyalarni $x \in [0; \pi]$

oraliqda 0 – tartibli yaqinlikka ega ekanligini isbotlang.

Yechimi: Yuqoridagi ta'rifga asosan

$$\rho_0 = \max_{x \in I} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| = \max_{x \in [0; \pi]} \left| \frac{\sin n^2 x}{n} \right| \leq \frac{1}{n} \rightarrow 0$$

demak $\rho_0 = 0$.

$$\rho_1 = \max_{x \in I} |\varphi'_1(x) - \varphi'_2(x)| = \max_{x \in [0; \pi]} \left| \frac{\cos n^2 x}{n} n^2 - 0 \right| \leq \max_{x \in [0; \pi]} |n \cos n^2 x| \leq n \rightarrow \infty$$

Misol – 5. $y_1(x) = \frac{\sin nx}{n^2}$ va $y_2(x) = 0$ funksiyalarni $x \in [0; \pi]$

oraliqda 1 – tartibli yaqinlikka ega ekanligini isbotlang.

Yechimi :

$$\rho_0 = \max_{x \in I} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| = \max_{x \in [0; \pi]} \left| \frac{\sin nx}{n^2} \right| \leq \frac{1}{n^2} \rightarrow 0$$

$$\rho_1 = \max_{x \in I} |\varphi'_1(x) - \varphi'_2(x)| = \max_{x \in [0; \pi]} \left| \frac{\cos nx}{n} \right| \leq \frac{1}{n} \rightarrow \infty$$

$$\rho_2 = \max_{x \in I} |\varphi''_1(x) - \varphi''_2(x)| = \max_{x \in [0; \pi]} |-\sin nx| \leq 1$$

1.2-§. Eng sodda variatsion masala. Masalaning qo'yilishi.

Ta'rif. Agar $y = f(x)$ funksiya (x_0, x_1) oraliqda o'zi uzluksiz va uzluksiz hosilaga ega bo'lsa, bunday funksiya $C^{(1)}$ sinfga tegishli deyiladi. Umuman, $y = f(x)$ funksiya o'zi uzluksiz va n – tartibgacha uzluksiz hosilalarga ega bo'lsa, bunday funksiya $C^{(n)}$ sinfga tegishli deyiladi.

Ekstremumi izlanishi kerak bo'lgan ushbu

$$I = \int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (3)$$

Integral berilgan bo'lsin, bunda $F(x, y, y')$ – ma'lum funksiya. Masalan,

braxistaxrona masalasida $F(x, y, y') = \frac{\sqrt{1 + y'^2}}{\sqrt{y}}$, eng kichik aylanish sirtini

izlash masalasida esa $F(x, y, y') = y\sqrt{1 + y'^2}$. x_0, x_1 berilgan o'zgarmas sonlar.

Asosiy masalaning ta'rif. Integral belgisi ostidagi $F(x, y, y')$ funksiya $y = f(x)$ funksiyaga bog'liq va u bilan birgalikda integralning o'zi ham shu

$y = f(x)$ funksiyaga bog'liqdir. Integral ma'noga ega bo'lishi uchun $f(x)$ va $F(x, y, y')$ funksiyalarni ma'lum shartlar bilan chegaralalaylik, chunonchi:

1) Tekislikning biror R sohasidan olingan har bir x va y uchun $F(x, y, y')$ bir qiymatli, uzluksiz va ikkinchi tartibgacha uzluksiz xususiy hosilalarga ega;

2) $y = f(x)$ ga qo'yiladigan shartlar a) (x_0, x_1) oraliqda $C^{(1)}$ sinfga tegishli; b) $y = f(x)$ funksiyani tasvirlovchi chiziq R sohada to'liq yotadi; d) $y = f(x)$ funksiya $A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalardan o'tadi.

a) , b) va d) shartlarga bo'ysinuvchi funksiyalar mumkin bo'lgan funksiyalar deyiladi.

Shunday qilib asosiy masala *mumkin bo'lgan egri chiziqlar ichidan (3) integralga minimum qiymat beruvchi chiziqni topishni talab qiladi.*

Ikkita mumkin bo'lgan $\tilde{y}$ va $y = f(x)$ egri chiziq

$$f(x) - \varepsilon < \tilde{y} < f(x) + \varepsilon$$

shartlarga bo'ysunadi, ularni R_ε sohada *qo'shni chiziqlar* deb ataylik, bunda ε –berilgan kichik musbat son. (3) integralga ekstremal qiymat beruvchi chiziq *ekstremal* deyiladi. Bu chiziq berilgan integralga qo'shni chiziqlarga nisbatan eng kichik yoki eng katta qiymat beradi. Shuning uchun ko'rilayotgan ekstremum *nisbiy ekstremum* ham deyiladi. Ta'rifga ko'ra ekstremal bilan qo'shni egri chiziqlar bir-biriga yaqin yotishi kerak. Bu yaqinlik

$$\tilde{y} - y = \delta y$$

ayirma bilan aniqlanadi, bu yerda δy belgi (Logranj belgisi) *funksionalning variatsiyasi* deyiladi. Shubhasiz, $x = x_0$ va $x = x_1$ nuqtalarda $\delta y = 0$ bo'ladi. Demak, barcha mumkin bo'lgan egri chiziqlar ekstremalga variatsiyani qo'shishdan iborat, ya'ni

$$\tilde{y}(x) = y(x) + \delta y \quad (4)$$

$y(x)$ funksiya variatsiyaning o'zi ham funksiya bo'lgani sababli uning hosilasi haqida gapirish mumkin, chunonchi quyidagi hossa o'rinli:



$$\frac{d}{dx}(\delta x) = \delta\left(\frac{dy}{dx}\right) = \delta y'$$

Haqiqtan,

$$\begin{aligned} \frac{d}{dx} \delta y &= \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\delta y(x + \Delta x) - \delta y(x)}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{[\tilde{y}(x + \Delta x) - y(x + \Delta x)] - [\tilde{y}(x) - y(x)]}{\Delta x} = \\ &= \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\tilde{y}(x + \Delta x) - \tilde{y}(x)}{\Delta x} - \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{y(x + \Delta x) - y(x)}{\Delta x} = \\ &= \frac{d}{dx} \tilde{y}(x) - \frac{d}{dx} y(x) = \delta \frac{dy}{dx}, \end{aligned}$$

ya'ni variatsiyaning hosilasi bir chiziqdan ikkinchi chiziqqa o'tishda bitta absissaga tegishli nuqtalardagi urinmalarni o'zgarishi degan so'zdir. Egri chiziqlarning yaqinlagi haqida so'z yuritish ekanmiz, quyidagi ikki holni ajratishimiz kerak:

- 1) agar $|\delta y|$ va $|\delta y'|$ ning ikkalasi ham bo'lsa, ya'ni egri chiziqlar ham vaziyati ham urinmalar yo'nalishi nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin bo'lsa (3-chizma), u holda ekstremum *kuchsiz ekstremum* deyiladi. Bu birinchi tartibli yaqinlashish.



2) agar $|\delta y|$ kichik, $|\delta y'|$ esa har qanday qiymat qabul qila olsa, u holda ekstremum *kuchli ekstremum* deyiladi (4–chizma).

Bu esa 0 – tartibli yaqinlashish.

Agar berilgan funksional biror egri chiziqda ekstremumga erishsa, u holda u uzluksiz ekstremumga ham albatta erishadi; lekin funksional kuchsiz ekstremumga erishadi, umuman aytganda, uning kuchli ekstremumga ham erishishi kelib chiqmaydi. Shuning uchun kuchli ekstremumga erishish shartlarini ikkala ekstremum uchun ham qabul qilish mumkin.

1.3-§. Variatsion hisobning asosiy lemmasi. Eyler tenglamasi.

1-lemma (Logranj lemmasi). (x_0, x_1) oraliqda uzluksiz bo'lgan $F(x)$ funksiya va shu oraliqda $C^{(1)}$ sinfga tegishli va $\eta(x_0) = \eta(x_1) = 0$ shartlarga bo'ysunuvchi har qanday $\eta(x)$ funksiya uchun ushbu

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x)\eta(x)dx$$

integral nolga teng bo'lsa, u holda (x_0, x_1) oraliqdan olingan har qanday x uchun $F(x) = 0$ bo'ladi.

Isbot: Isbotlash uchun teskaridan faraz qilaylik. (x_0, x_1) oraliqdan olingan biror ξ nuqtada $F(x) \neq 0$ bo'lib, $F(x) > 0$ bo'lsin, u holda $F(x)$ ning uzluksizligi sababli ξ ning kichik atrofida ham musbat bo'ladi. ξ ning kichik atrofini quyidagicha olaylik:


$$x_0 < \xi_0 < \xi < \xi_1 + \frac{\pi}{n} < x_1.$$

Shunday qilib farazimizga ko'ra $(\xi_1, \xi_1 + \frac{\pi}{n})$ oraliqda $F(x)$ musbat bo'lib biror

musbat m sonidan katta bo'ladi. Endi $\eta(x)$ ni (x_0, x_1) oraliqda quyidagicha olaylik:

$$\eta(x) = \begin{cases} (\xi_1, \xi_1 + \frac{\pi}{n}) \text{ da } \sin^2 n(x - \xi_1), \\ \text{boshqa nuqtalarda } 0. \end{cases}$$

Bunday aniqlangan funksiya lemma shartlarini qanoatlantiradi, ya'ni o'zi uzluksiz va uzluksiz hosilaga ega, undan tashqari $\eta(x_0) = \eta(x_1) = 0$



5 – chizma

Shuning uchun lemma shartiga ko'ra

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x)\eta(x)dx = 0$$

bo'lishi kerak. Lekin

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x)\eta(x)dx = \int_{\xi_1}^{\xi_1 + \frac{\pi}{n}} F(x)\sin^2 n(x - \xi_1)dx > m \int_{\xi_1}^{\xi_1 + \frac{\pi}{n}} \sin^2 n(x - \xi_1)dx = \frac{\pi m}{2n} > 0$$

$F(x) \neq 0$ deb zidlikka keldik. Demak $F(x) \equiv 0$ ekan.

Ikki argumentli uchun ham huddi shu lemma o'rinalidir.

2-lemma(Logranj lemmasi). *D sohada uzluksiz bo'lgan $F(x, y)$ funksiya va shu sohada o'zi uzluksiz, uzluksiz hususiy hosilalarga ega va soha konturi L da nolga teng bo'lgan ixtiyoriy $\eta(x, y)$ funksiya uchun ushbu*

$$\iint_D F(x, y)\eta(x, y)dxdy$$


Integral nolga teng bo'lsa, u holda D sohada $F(x, y) \equiv 0$ bo'ladi.

Haqiqatan, sohaning birorta (x_1, y_1) nuqtasida lemmaga teskari holat o'rinli, ya'ni lemma sharti bajarilgan holda $F(x_1, y_1) \neq 0$ deb faraz qilamiz. (x_1, y_1) nuqtaning kichik atrofi ε_1 da K_{ε_1} doira bo'lsin. Bu doira aylanasida va

undan tashqarida $\eta(x, y)$ funksiya va uning hususiy hosilalari nolga teng bo'lib, doira ichida

$$\eta(x, y) = [(x - x_1)^2 + (y - y_1)^2 - \varepsilon^2]^2$$

bo'lsin (6-chizma).



6-чизма

Olingan kichik doira ichida farazimizga ko'ra $F(x, y)$ funksiya uzluksizligi tufayli noldan farqli bo'ladi, aniqrog'i $F(x, y) > M$ (M -musbat son) bo'lsin, u holda ushbu

$$\begin{aligned} \iint_D F(x, y) \eta(x, y) dx dy &= \iint_{K_{\varepsilon_1}} F(x, y) \eta(x, y) dx dy > \\ &> M \iint_{K_{\varepsilon_1}} [(x - x_1)^2 + (y - y_1)^2 - \varepsilon^2]^2 dx dy, \end{aligned}$$

integral ostida musbat funksiya bo'lgani uchun integrallash natijasi musbat bo'lib,

$$\iint_D F(x, y) \eta(x, y) dx dy > 0$$

bo'ladi. Bu esa lemma shartiga ziddir. Demak, $F(x, y) \neq 0$ degan faraz noto'g'ri bo'lib $F(x, y) \equiv 0$ bo'lishi kerak ekan.

Eyler tenglamasi.

$A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalardan o'tuvchi mumkin bo'lgan egri chiziqlar ichidan ushbu

$$I(y) = \int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (3)$$

integralga maksimal qiymat beruvchi $y = f(x)$ funksiyani izlash masalasiga o'taylik. Aniqrog'i, $y = f(x)$ funksiya qanoatlantirishi lozim bo'lgan zaruriy shartni aniqlaylik. (3) ko'rinishdagi

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx$$

funksioanallar integrallanmaydigan ifodalar bo'lishi kerak, aks holda qo'yilgan shartga hech qanday chiziq bo'ysunmaydi. Qo'shni egri chiziqqa tegishli integralni

$$I(\tilde{y}) = \int_{x_0}^{x_1} F(x, \tilde{y}, \tilde{y}') dx$$

ko'rinishida yozib, integrallar ayirmasini ΔI funksional orttirmasi desak,

$$\begin{aligned} \Delta I &= \int_{x_0}^{x_1} F(x, \tilde{y}, \tilde{y}') dx - \int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx = \\ &= \int_{x_0}^{x_1} [F(x, \tilde{y}, \tilde{y}') - F(x, y, y')] dx \end{aligned}$$

Funksionalning maksimum yoki minimumga erishishini orttirmalar tiliga ko'chirib, quyidagicha bo'ladi: ΔI funksionalning ΔI orttirmasi uchun

$$\Delta I = I(\tilde{y}) - I(y) \leq 0 \quad (4')$$

tengsizlik har qanday qo'shni $y(\tilde{x})$ chiziqqa nisbatan bajarilsa, u holda funksional $y = f(x)$ chiziqda maksimumga erishadi deyiladi. Shu bilan birga $y = f(x)$ ga $\Delta I = 0$ bo'ladi. Shunga o'xshash $y = f(x)$ chiziqqa qo'shni chiziqlar uchun $\Delta I \geq 0$ bo'lsa, $y = f(x)$ da funksional minimum qiymatga erishadi deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra ekstremal chiziq atrofida funksional orttirmasi ΔI ning ishorasi bir xil saqlanishi kerak ekan.

(4) dagi integral belgisi ostidagi ayirmaga o'rta qiymat teoremasini so'ngi ikkita argumentga nisbatan qo'llaymiz:

$$\begin{aligned}
F(x, \tilde{y}, \tilde{y}') - F(x, y, y') &= F(x, y + \delta y, y' + \delta y') - F(x, y, y' + \delta y') + \\
&+ F(x, y, y' + \delta y') - F(x, y, y') = \frac{\delta F(x, y + \theta \delta y) y' + \delta y'}{\partial y} (\tilde{y} - y) + \\
&+ \frac{\delta F(x, y, y' + \theta_1 \delta y')}{\partial y'} (\tilde{y}' - y') = \frac{\partial F^*}{\partial y} \delta y + \frac{\partial F^{**}}{\partial y'} \delta y',
\end{aligned}$$

bunda (*), (**) belgilar $\frac{\partial F}{\partial y}, \frac{\partial F}{\partial y'}$ ning y va $\tilde{y}$, y' va $\tilde{y}'$ lar orlig'idagi mos argumentlarga tegishli qiymatlarini qisqacha yozish maqsadida qo'yildi. $F(x, y, y')$ funksional barcha argumentlari bo'yicha uzluksiz bo'lganligi uchun ΔI ni quyidagicha ko'rinishda yozsak bo'ladi:

$$\Delta I = \int_{x_0}^{x_1} \left(\frac{\partial F}{\partial y} \delta y + \frac{\partial F}{\partial y'} \delta y' \right) dx + R \quad (5)$$

bunda, R qo'shiluvchi δy va $\delta y'$ ga nisbatan cheksiz kichik miqdordir.

(5) orttirmaning bosh qismi bo'lgan ushbu

$$\int_{x_0}^{x_1} \left(\frac{\partial F}{\partial y} \delta y + \frac{\partial F}{\partial y'} \delta y' \right) dx \quad (6)$$

integral (3) *funksionalning variatsiyasi* deyiladi va δI kabi belgilanadi. (6)

integral belgisi ostidagi ikkinchi qo'shiluvchini bo'laklab integrallaymiz:

$\delta y' = (\delta y)'$ ekanligini nazarda tutsak,

$$\delta I = \frac{\partial F}{\partial y'} \delta y \Big|_{x_0}^{x_1} + \int_{x_0}^{x_1} \left[\frac{\partial F}{\partial y} + \frac{d}{dx} \left(\frac{\partial F}{\partial y'} \right) \right] \delta y dx$$

bo'ladi, bunda $\frac{\partial F}{\partial y'}$ $x = x_0$ va $x = x_1$ nuqtalarda, umuman (x_0, x_1) oraliqda

tayin chekli qiymatlarga ega, δy esa chegaralarda nolga teng bo'lgani uchun integraldan tashqarida turgan ifoda nolga teng bo'lib, funksionalning variatsiyasi

$$\delta I = \int_{x_0}^{x_1} \left[\frac{\partial F}{\partial y} - \frac{d}{dx} \left(\frac{\partial F}{\partial y'} \right) \right] \delta y dx \quad (7)$$

ko'rinishni oladi. $\delta I \neq 0$ desak, δy va $\delta y'$ kichik bo'lganda (5) dagi ΔI ning ishorasi bosh qismaining ishorasi bilan bir xil bo'ladi, ya'ni ΔI ning ishorasi bilan δI birinchi variatsiyaning ishorasi bir xil bo'lishi kerak. Ekstremal chiziq atrofida ΔI ishorasini almashtirganligi sababli δI ham $y = f(x)$ chiziq atrofida ishorasini almashtirishi kerak. Lekin (7) dan ko'rinadiki, δy ning ishorasi o'zgarsa, δI ning ham ishorasi o'zgaradi. Shu sababli ΔI nih ham ishorasi o'zgarishi kerak. Bu $\delta I = 0$ qarama-qarshilikka kelmaslik uchun $\delta I = 0$ deyishimiz kerak ekan. Demak, $I(y)$ funksional ekstremal qiymatga ega bo'lishining zaruriy sharti

ya'ni birinchi variatsiyaning nolga teng bo'lishidir, demak,

$$\int_{x_0}^{x_1} \left[\frac{\partial F}{\partial y} - \frac{d}{dx} \left(\frac{\partial F}{\partial y'} \right) \right] \delta y dx = 0 \quad (8)$$

tenglikning bajarilishi ushbu

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (3)$$

integral ekstremal qiymatga ega bo'lishining zaruriy shartidir. Bu shartni qulayroq ko'rinishga keltirish maqsadida 1–lemmani qo'llaylik. (8)da δy ixtiyoriy bo'lib, 1–lemma shartlariga bo'ysunadi, shuning uchun lemmaga asosan

$$\frac{\partial F}{\partial y} - \frac{d}{dx} \left(\frac{\partial F}{\partial y'} \right) = 0 \quad (9)$$

bo'ladi.

(9) tenglama Eyler tenglamasi deyilib, (3) integral ekstremumga ega bo'lishining zaruriy shartidir. Demak, $y = f(x)$ funksiya (3) integralga ekstremum qiymat berishi uchun u (9) tenglamani qanoatlantirishi lozim.

1.4-§. Chegaralari o'zgaruvchi bo'lgan funksionallar. Transversallik shartlari.

Biz yuqorida ko'rgan

$$\int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (3)$$

integralning chegaralari o'zgarmas edi, ya'ni berilgan qo'zg'almas $A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalardan o'tuvchi egri chiziqlar ichidan bu integralga ekstremal qiymat beruvchi chiziqni izlagan edik. Endi mumkin bo'lgan egri chiziqlar ichidan ma'lum sohada yotadiyu, lekin hech qanday chegaraviy shartlarga bo'ysunmaydi. deb faraz qilaylik. Bunday egri chiziqlar to'plami bitta yoki bir nechta parametrga bog'liq bo'lib, parametrlarning o'zgarishi natijasida to'plamning bir chizig'idan ikkinchisiga o'tiladi. Shu sababli egri chiziqlarning uchlari ham parametrga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Bunda biz birgina parametrga bog'liq chiziqlar oilasi bilan ish ko'ramiz, ya'ni $y = f(x, \alpha)$ deymiz. Bunday o'zgarishda chiziqlarning ikki uchi tayin chiziqlar yoki sirtlar bo'yicha harakat qilishi mumkin yoki bir uchi birlashtirilgan, ikkinchi uchi yuqorida aytilgandek harakatda bo'lishi mumkin. Mana shunday egri chiziqlar ichidan

$$I(\alpha) = \int_{x_0(\alpha)}^{x_1(\alpha)} F(x, f(x, \alpha), f'_x(x, \alpha)) dx \quad (10)$$

funksionalga ekstremal qiymat beruvchi chiziqni topish talab qilinadi. Eng avval biz integralning ikki uchi ham harakatda bo'lgan holda birinchi variatsiya ifodasini yozamiz, so'ngra qolgan hollarni ko'rib chiqamiz. Shuni aytib o'tish o'rinliki, qanday chiziqlar to'plami olinmasin, integralga ekstremal qiymat beruvchi chiziq albatta ekstremal bo'lishi, ya'ni Eyler tenglamasining yechimi bo'lishi lozim. Shubhasiz, egri chiziqlar to'plamida izlanayotgan ekstremalga yaqin yotgan qo'shni chiziqlarda funksionalning qiymatlarini ko'rishimiz kerak. Qo'shni chiziqlarni §1.1 da qabul qilganimizday

$$\tilde{y} = y + \delta y$$

deb belgilaylik. Integral chegaralari ham parametrga bog'liq ravishda variatsiyalanadi, ya'ni ekstremalning ikki uchi $A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ nuqtalarda bo'lsa, qo'shni chiziqlarning ikki uchi $(x_0 + \delta x_0, y_0 + \delta y_0)$ va $(x_1 + \delta x_1, y_1 + \delta y_1)$ nuqtalarda bo'ladi. Qo'shni chiziqlarga nisbatan yozilgan

$$\tilde{I} = \int_{x_0 + \delta x_0}^{x_1 + \delta x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx$$

funksionalda uchlaridagi siljishlar kichik bo'lgani sababli uchlarning variatsiyasi bo'lgan δx_i va δy_i belgilarni matematik anlizdagi $\Delta x_i = dx_i$ va $\Delta y_i = dy_i$ belgilar bilan bir narsa deb tushunishimiz kerak.

Funksional orttirmasi

$$\Delta I = \tilde{I} - I = \int_{x_0 + \delta x_0}^{x_1 + \delta x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') - \int_{x_0}^{x_1} F(x, y, y') dx \quad (11)$$

bo'lib, shu orttirmaning δx , δy , δx_0 , δx_1 ga nisbatan bosh chiziqli qismi *funksionalning variatsiyasi* deyiladi. Mana shu variatsiya ifodasini hosil qilishimiz kerak. (11) ning birinchi integralini

$$\begin{aligned} & \int_{x_0}^{x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx - \int_{x_0 + \delta x_0}^{x_1 + \delta x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx + \\ & + \int_{x_1}^{x_1 + \delta x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx \end{aligned} \quad (12)$$

ko'rinishda yozib, bu ifodaning birinchi integrali bilan (11) ning ikkinchi integralini birlashtirib yozamiz:

$$\Delta I = \int_{x_0}^{x_1} [F(x, y + \delta y, y' + \delta y') - F(x, y, y')] dx - I_0 + I_1 \quad (13)$$

bunda

$$\begin{aligned} I_0 &= \int_{x_0}^{x_0 + \delta x_0} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx, \\ I_1 &= \int_{x_1}^{x_1 + \delta x_1} F(x, y + \delta y, y' + \delta y') dx. \end{aligned}$$

(13) dagi birinchi integralning bosh chiziqli qismi (6) asosan

